

## QIZLARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIKNI OLDINI OLIHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

*Abdullaeva Rayxan Jaqsiliq qizi*  
*Qoraqolpog'iston Respublikasi*  
*Qonliko'l tumani 14-maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olishning psixologik masalalari, uning sabablari hamda profilaktik choralari yoritiladi. Shuningdek, oila, maktab va jamiyatning bu jarayondagi roli tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:**Zo‘ravonlik, qizlar, psixologiya, profilaktika, himoya, tarbiya, ijtimoiy muhit, psixologik yordam, xavfsizlik.

### KIRISH

Qizlarga nisbatan zo‘ravonlik bugungi kunda jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat shaxsning psixologik rivojlanishiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga va kelajakdagi hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik nuqtayi nazardan zo‘ravonlikning kelib chiqishiga oilaviy muammolar, tarbiya jarayonidagi kamchiliklar, ijtimoiy nazoratning sustligi hamda salbiy muhit ta’siri sabab bo‘lishi mumkin. Zo‘ravonlikka uchragan shaxsda qo‘rquv, stress, o‘ziga ishonchsizlik va ruhiy tushkunlik kabi holatlar kuzatiladi. Shu sababli psixologik yordam ko‘rsatish juda muhimdir.

Maktab sharoitida psixologik xizmatni kuchaytirish zo‘ravonlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Psixologlar tomonidan o‘tkaziladigan suhbatlar va treninglar o‘quvchilarda o‘z huquqlarini anglashni rivojlantiradi. Oila esa eng asosiy himoya muhitidir. Ota-onalar farzandlari bilan ochiq muloqotda bo‘lishi, ularga ishonchli va xavfsiz muhit yaratishi zarur. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish va ijtimoiy ongini rivojlantirish ham zo‘ravonlikni kamaytirishga yordam beradi. Qizlarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish kompleks yondashuvni talab qiladi. Oila, maktab va jamiyat hamkorligi bu muammoni kamaytirishda asosiy omil hisoblanadi. Yoshi, irqi, jinsi, e’tiqodi yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, har kim oiladagi zo‘ravonlik qurboniga aylanishi mumkin. Bolalar, boshqa qarindoshlar yoki boshqa har qanday birga yashaydigan shaxslar ham ichki tajovuz qurboni bo‘lishlari mumkin. Uydagi tajovuz odatda o‘zini oilada yoki yaqin sherikga nisbatan tizimli tajovuzkor xatti-harakatlar sifatida namoyon qiladi, bunda tajovuzkor jabrlanuvchi ustidan kuch va nazoratga ega bo‘ladi.

"Ayol ruhi sohasidagi o'ttiz yillik izlanishlarimga qaramay, men ham ayol nimani xohlashini qanday tushunish kerak? – degan savoga javob bera olmayman "Zigmund Freyd (1923) "Oiladagi jismoniy", "oiladagi maishiy zo'ravonlik" yoki "intim zo'ravonlik" deb ham ataladigan ichki tajovuzni yaqin sherik ustidan hokimiyat va nazoratni qo'lga kiritish yoki saqlashga qaratilgan odamlar o'rtasidagi munosabatlardagi tizimli xatti-harakatlar deb ta'riflash mumkin.

Agressiya-bu boshqa odamga ta'sir qiladigan jismoniy, jinsiy, hissiy, iqtisodiy yoki psixologik harakatlar yoki harakatlar tahdidi. Bunga kimnidir qo'rqitadigan, bo'sundiradigan, xafa qiladigan, kamsitadigan, ayblaydigan, haqorat qiladigan yoki jarohatlaydigan har qanday xatti-harakatlar kiradi.

Uydagi tajovuz irqi, yoshi, jinsiy orientatsiyasi, dini va jinsidan qat'i nazar, har qanday odamga ta'sir qilishi mumkin. Bu turli xil munosabatlarda sodir bo'lishi mumkin, ular turmush qurgan juftliklar o'rtasidami, birgalikda yashayotganlar o'rtasidami yoki tanishlar o'rtasida ham bo'lishi mumkin. Oiladagi zo'ravonlik ijtimoiy-iqtisodiy kelib chiqishi va bilim darajasidagi har xil bo'lgan insonlar odamlarga ta'sir qiladi.

Uydagi tajovuz belgilari quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. \* Do'stlar davrsida va oilada kamsitilishi yoki masxara qilishi. \* Yutuqlarni mensimasligi.

- \* Insonni qaror qabul qilish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.
- \* Bo'sundirish uchun qo'rqitish va tahdidlardan foydalanadi.
- \* Sizga hech kim emasligingizni o'qtirib boradi.
- \* Sizga qo'pol muomalada bo'ladi, masalan, urish, itarib yuborish, chimchilash kabilar.....
- \* Giyohvand moddalar yoki spirtli ichimliklar ta'sirida tajovuz qiladi.
- \* O'zining his-tuyg'ulari yoki harakatlari uchun sizni ayblaydi.
- \* O'zingiz xohlagan narsani qilishingizga yo'l qo'ymaydi.

Jismoniy va jinsiy zo'ravonlik yoki undan foydalanish tahdidi uydagi tajovuz va zo'ravonlikning eng sezilarli shakllari hisoblanadi. Ularning namoyon bo'lishi boshqa odamlarga muammoning mavjudligini ko'rsatib turadi. Agarda tajovuzkor muntazam ravishda tajovuzkor harakatlarni amalga oshirsa, unda jismoniy zo'ravonlikning bir yoki bir nechta namoyon bo'lishi bilan birga, bu allaqachon suiiste'mol qilishning katta muammosi sifatida ko'riladi.

**Hissiy tajovuz:** doimiy ravishda odamning o'zini tomonidan o'zi qadrsizlantirishi; odamning qobiliyatlarini kamsitish; haqoratli yoki kamsituvchi fikrlarning aytilishi; bolalar, yaqinlar bilan munosabatlariga zarar yetkazish; oila va do'stlar bilan uchrashuvlarning taqiqlash. Agar turmushga chiqqan bo'lsa, turmush o'rtog'ining hissiy tajovuz belgilari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- \* doimiy haqorat va tanqid;
- \* ishonmaslik, hasad yoki o‘zini xo‘jayindek tutadi;
- \* oilangiz yoki do‘stlaringizdan ajratishga harakati;
- \* qaerga borganingizni, kimga qo‘ng‘iroq qilayotganingizni va kim bilan vaqt o‘tkazganingizni kuzatib boradi;
- \* o‘qishga yubormaslik; \* iqtisoddan qiynash;
- \* o‘ta sovuq munosabat;
- \* farzandlar, qarindoshlar hayoti bilan qo‘rqitish;

**Psixologik tajovuz:** qo‘rquv tuyg‘usini keltirib chiqarish uchun qo‘rqitish, o‘zingizga, sherigingizga yoki bolalaringizga jismoniy zarar yetkazish bilan tahdid qilish, uy hayvonlarini o‘ldirish va mulkka zarar yetkazish, ongni manipulyatsiya qilish, do‘stlar, qarindoshlar, maktab va/yoki ishdan majburiy izolyatsiya qilish.

**Moliyaviy yoki iqtisodiy tajovuz:** moliyaviy resurslarni to‘liq nazorat qilish, mablag‘larni rad yetish yoki o‘qitish yoki ishga joylashishni taqiqlash orqali kimgadir moliyaviy qaramlikni yaratish yoki yaratishga urinishlar.

**Jismoniy tajovuz:** sherigiga og‘riq keltirish, mushtlash yoki tepish, chimchilash, itarish, urish, sochini yulish, tishlash, tibbiy yordam berishni rad etish, spirtli ichimliklar yoki giyohvand moddalarni iste‘mol qilishga majburlash, boshqa jismoniy kuch ishlatish. Bunda quyidagi ishlar amalga oshirilishi mumkin:

- \* g‘azablanadi, narsalarni buzadi (devorlarni urishi, eshiklarni tepish kabilar);
- \* uradi, tishlaydi, tepadi yoki bo‘g‘adi;
- \* xotinini xavfli yoki notanish joyda tashlab ketadi;
- \* uydan haydab chiqaradi;
- \* qurol bilan tahdid qiladi yoki xafa qiladi;
- \* uyni qulflab qo‘yadi yoki uydan chiqishiga to‘sqinlik qiladi;
- \* ichki ishlar xodimlari bilan bog‘lanish yoki tibbiy yordam so‘rashga ruxsat bermaydi; \* intim vaziyatda jismoniy kuchga murojaat qiladi.

**Ta‘qib qilish** yoki qo‘rqitishga qaratilgan har qanday xatti-harakatni o‘z ichiga oladi. Ta‘qib qilishning odatiy turlariga telefon qo‘ng‘iroqlari, istalmagan xatlar yoki sovg‘alar, jabrlanuvchining ish joyi, o‘qish joyiga muntazam ravishda tashrif buyurishi.

Tarixiy asarlarga yuzlanadigan bo‘lsak, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" asarida jajji qiz - Ra‘noning tazyiqqa uchrashi, otasi tomonidan zo‘rlab xonga turmushga berishga harakat qilinishi o‘sha davrda, xon haramidagi hali norasida qizlarning o‘qishlarini tashlab, saroyda yosh umrlarining zavol bo‘lishi o‘quvchi - qizlarga, juvonlarga qilingan eng katta tajovuzlardan biri edi.

Bunday qizlar sevish baxtidan ancha yiroqlashtirilib, faqatgina xonning ko'ngil - xushligi, kayfiyatini ko'taruvchi omil, shaxvatini qondiruvchi vosita sifatida foydalanilganlar..

Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarini bir eslaylik. O'qimagan, chala dumbul otaning farzandini o'ylamasdan, zo'rlash va tazyiq asosida guldek qizini o'zidan ham katta erkakka to'rtinchi xotin sifatida uzatishiga nima deysiz?! Bu bilan qizlarning haq huquqlari to'la qonli poymol etilganligini ko'rishimiz mumkin. Vaholangki, muqaddas dinimizda ham qiz bolani o'zining rizoligisiz nikohlashning mumkin emasligi aytib o'tilgan.

### XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, oila sharoitida qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida so'z (nutq) kuchiga tayangan holda faoliyat yuritish kutilgan natijalarni berishga xizmat qiladi. Zero, so'z (nutq) yordamida qizlarga muayyan masalalar yuzasidan ma'lumotlar berish, ularning bilimlarini shakllantirish va oshirib borish, ular tomonidan amalga oshirilgan xatti – harakatlarning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida fikr bildirish, rag'batlantirish, ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini yuzaga keltirish, muayyan voqea hamda hodisalarga nisbatan shaxsiy yondashuvni qaror toptirishga undash imkoniyati yuzaga keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Enikolopov S.N. Oilaviy zo'ravonlik muammolari // Amaliy psixologiya. - 2002. - № 5/6. - S. 7 ..
2. Perttu S. Zo'ravonlikka duch kelgan ayollar uchun qo'llanma /. - Jivaskila: Gummerus, 2010. - S. 6-7 ..
3. Asanova M. Oiladagi zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ko'rsatmalar / Ed. N.K.: Vlados, 2007.- S. 218 ..
4. Zdravomyslova O. Oiladagi zo'ravonlik va an'anaviy tarbiya tushunchasining inqirozi // Ijtimoiy pedagogika. - 2005. - № 1. - S. 124 .